

**ABDUQAYUM YO'LDOSHEV ASARLARIDA O'QUVCHIGA ESTETIK
TA'SIRNING LINGVOPOETIK MEXANIZMLARI****Nodirova Maftuna Rustamovna****ToshPTI O'zbek, rus va lotin tillari kafedrası o'qituvchisi****gewinnung19@gmail.com 88.2719319****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21918881>**

Badiiy matnning eng muhim vazifalaridan biri o'quvchida estetik ta'sir uyg'otishdir. Ushbu ta'sir, avvalo, tilning obrazli, emotsional va ekspressiv imkoniyatlari orqali yuzaga keladi. Lingvopoetika badiiy matnda qo'llanilgan til birliklarining estetik vazifasini, ularning matn mazmuni va o'quvchi tafakkuriga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganuvchi yo'nalish hisoblanadi. Shu jihatdan badiiy asarda qo'llangan leksik, frazeologik va sintaktik vositalarning tahlili muallifning individual uslubini hamda o'quvchiga estetik ta'sir mexanizmlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. N. Mahmudov tilni milliy tafakkur va madaniyatning ifodachisi sifatida baholab, badiiy matnda til vositalarining estetik imkoniyatlarini alohida ta'kidlaydi. [1.86-b] D. Xudoyberganova esa til birliklari xalqning madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini o'zida mujassamlashtirishini qayd etadi. [2.92-b] Mazkur nazariy qarashlar A. Yo'ldoshev asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi A. Yo'ldoshev asarlarida o'quvchiga estetik ta'sirni yuzaga keltiruvchi lingvopoetik vositalarni aniqlash va ularning badiiy matndagi vazifasini yoritishdan iborat. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, A. Yo'ldoshev asarlarida estetik ta'sir birgina badiiy vosita hisobiga emas, balki leksik, frazeologik, sintaktik hamda pragmatik vositalarning o'zaro uyg'unligi asosida yuzaga keladi. Muallif xalqona iboralar, obrazli ifodalar, dialog va ichki monologlar orqali o'quvchining hissiy olamiga ta'sir ko'rsatadi.

1. Frazeologik birliklar: Muallif xalq tilida shakllangan frazeologik birliklardan unumli foydalanadi. Bunday birliklar qahramonning ruhiy holatini, xarakterini hamda voqelikka munosabatini ixcham va ta'sirchan ifodalash imkonini beradi.

M: "Qo'llari gul ekan." [4.86-b] Lingvopoetik vosita: frazeologik birlik. *"Qo'li gul"* birikmasi ko'chma ma'noda qo'llanib, shaxsning biror ishni mohirona bajarishini bildiradi. Tayyor obrazli birlikning ishlatilishi fikrni oddiy *"u mohir"* tarzidagi ifodaga nisbatan ta'sirchanroq yetkazadi. Frazeologizm xalqona nutqqa xos obrazlilikni saqlagan holda matnning ekspressivligini oshiradi.

M: "Tepa sochi tikka bo'ldi." [4.75-b] Lingvopoetik vosita: frazeologizm. Mazkur frazeologik birlik kuchli hayrat, qo'rquv yoki ruhiy bezovtalikni ko'chma ma'noda ifodalaydi. Birikma qahramonning holatini bevosita *"qo'rqdi"* yoki *"hayratlandi"* tarzida emas, obrazli shaklda ifodalash imkonini beradi. Shu sababli nutqning emotsional-ekspressivligi kuchayadi. *M: "Yuragi hapriqib ketdi."* [4.22-b] Lingvopoetik vosita: frazeologik/obrazli birlik. *"Yurak"* komponenti orqali insonning ichki kechinmasi ifodalangan. Birikma qahramonning hayajonli ruhiy holatini bildiradi. Ruhiy holatning tana a'zosi bilan bog'liq holda ifodalanishi matnda obrazlilikni kuchaytirib, o'quvchining tasavvurini faollashtiradi.

2. O'xshatish: *M: "Ko'nglining tubida nadomatga o'xshash bir tuyg'u..."* (75-b) Lingvopoetik vosita: o'xshatish. Tahlil: *"-ga o'xshash"* shakli o'xshatish munosabatini yuzaga keltirgan. *"Tuyg'u"*ning *"nadomat"*ga o'xshatilishi qahramonning murakkab ruhiy holatini

ifodalashga xizmat qilmoqda. O‘quvchi qahramon kechinmasini bevosita emas, *“nadomat”* tushunchasi orqali tasavvur qiladi. Shu jihatdan o‘xshatish matnning ta’sirchanligini oshiradi.

3. Metafora *M: “Qanotsiz farishta...”* [4.86-b] Lingvopoetik vosita: metaforik ifoda. *“Farishta”* leksemasining insonga nisbatan ko‘chma ma’noda qo‘llanishi uning pokligi, beg‘uborligi yoki ma’naviy go‘zalligini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. *“Qanotsiz”* komponenti esa ushbu metaforik ifodaning obrazlilik darajasini kuchaytiradi. Natijada obrazga nisbatan ijobiy baholovchi munosabat yuzaga keladi.

4. Dialog *M: “Bir maza qilib ichaylik.”* [4.77-b] Lingvopoetik vosita: dialogik nutq, so‘zlashuv uslubiga xos birlik. *“Ichaylik”* fe’lidagi -aylik shakli birgalikdagi harakatga undash ma’nosini bildiradi. *“Bir maza qilib”* birikmasi esa og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, fikrga tabiiylik va ekspressivlik beradi. So‘zlashuv unsurlarining badiiy matnga kiritilishi qahramon nutqining hayotiylikni oshiradi.

5. Ritorik so‘roq *M: “Insof bormi o‘zi senda?”* [4.87-b] Lingvopoetik vosita: ritorik so‘roq gap. Tahlil: Gap shaklan so‘roq gap bo‘lsa-da, undan haqiqiy javob kutilmaydi. *“O‘zi”* komponenti so‘roqning ta’kid va norozilik ma’nosini kuchaytirgan. Ritorik so‘roq orqali so‘zlovchining salbiy munosabati kuchli ifodalanib, o‘quvchi ham vaziyatga nisbatan baho berishga undaladi.

6. Ritorik so‘roq va takror: *M: “Endi uning ko‘radigan kuni kunmi?”* [4.87-b] Lingvopoetik vosita: ritorik so‘roq va leksik takror. Gapdagi *“kun”* leksemasining takroriy qo‘llanishi ekspressivlikni kuchaytirgan. Savol shakli esa haqiqiy javob olish uchun emas, qahramonning og‘ir holatiga nisbatan achinish va norozilikni ifodalash uchun xizmat qilmoqda. Ritorik so‘roq va takrorning birgalikda qo‘llanishi gapning emotsional ta’sirini oshiradi.

7. Undov-ekspressiv gap *M: “Axir tiriklayin so‘yding-ku qiz bechorani!”* [4.87-b] Lingvopoetik vosita: undov gap, kuchaytiruvchi yuklamalar va baholovchi leksika *“Axir”* so‘zi ta’kid va e’tiroz ma’nosini kuchaytiradi, *“-ku”* yuklamasi esa mazmunga alohida urg‘u beradi. *“Bechora”* leksemasi qizga nisbatan achinish munosabatini ifodalovchi baholovchi birlikdir. Mazkur vositalarning bir gapda uyg‘unlashishi so‘zlovchining keskin hissiy munosabatini ifodalab, gapning emotsional-ekspressivligini kuchaytiradi.

8. Muallif milliy murojaat birliklari va hurmat shakllaridan unumli foydalanadi.

M: “Muniraxon o‘z qo‘llari bilan tayyorlab kelibdilar.” [4.87-b]

“-dilar” shakli o‘zbek nutq madaniyatidagi hurmat kategoriyasini ifodalaydi.

M: “Ukajon...” “Qizimiz...” [4.47-b] Mazkur murojaatlar oilaviy yaqinlik va milliy muomala madaniyatini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, A. Yo‘ldoshev asarlarida o‘quvchiga estetik ta’sir tayyor holda berilmaydi, balki til vositalarining o‘zaro munosabati orqali yuzaga keladi. Yozuvchi xalqona frazeologizmlar, obrazli o‘xshatish va metaforalar, emotsional-ekspressiv birliklar, dialog va ichki nutq, ritorik so‘roq, takror hamda milliy murojaat shakllaridan foydalanish orqali matnning ta’sirchanlik darajasini oshiradi. Bunda har bir til birligi alohida badiiy bezak vazifasini bajarish bilangina cheklanmay, o‘quvchining matnni idrok etish jarayonini boshqaruvchi lingvopoetik vositaga aylanadi.

A.Yo‘ldoshevning o‘ziga xosligi shundaki, u murakkab ruhiy holatlarni ko‘pincha sodda, xalqona va tabiiy til birliklari orqali ifodalaydi. Natijada matnda sun’iylik emas, hayotiylik ustunlik qiladi. Frazeologizmlar obrazni ixchamlashtirsa, o‘xshatish va metaforalar tasavvurni faollashtiradi; ritorik so‘roq va undovlar hissiy munosabatni kuchaytiradi; dialog va ichki nutq

esa o'quvchini qahramon kechinmalariga yaqinlashtiradi. Shu tariqa estetik ta'sir tilning leksik, frazeologik va sintaktik qatlamlarining bir butun tizim sifatida ishlashi natijasida hosil bo'ladi. Tadqiqot davomida kuzatilgan yana bir muhim jihat shuki, yozuvchining estetik ta'sir yaratish usuli milliy nutq xususiyatlari bilan chambarchas bog'langan. Xalqona iboralar, murojaat shakllari, hurmat ifodalovchi birliklar va so'zlashuv unsurlari matnga milliy kolorit berish bilan birga, o'quvchining madaniy xotirasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Demak, A. Yo'ldoshev idiosstilida estetiklik va milliylik bir-birini to'ldiruvchi ikki alohida hodisa emas, balki til orqali yaxlit namoyon bo'luvchi hodisalardir.

Shunday qilib, A. Yo'ldoshev asarlaridagi estetik ta'sir mexanizmlarini o'rganish yozuvchining individual uslubini belgilovchi lingvistik xususiyatlarni aniqlash bilan birga, o'zbek tilining obrazlilik, ekspressivlik va ta'sirchanlik imkoniyatlarini ochib berishga ham xizmat qiladi. Bu jihatdan adib ijodi badiiy matnda milliy tilning tabiiy imkoniyatlaridan foydalanish, ularni yangi kontekstlarda faollashtirish va o'quvchi idrokiga ta'sirchan yetkazishning muhim namunalaridan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – 2012. – №3. – B. 3–16.
2. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. Toshkent.
4. Yo'ldoshev, A. Timsohning ko'z yoshlari– Toshkent: “Yangi asr avlodi” 2003 y.
5. Nazarova, Z. (2019). Til va estetik tafakkur: lingvopoetik yondashuv. Toshkent: Fan.